

## PROPORSIYA VA PROSENTLAR

Raimova Dilafro'z Xoshimovna

*Qo'shtepa tumani 2- son kasb hunar maktabi matematika fani o'qituvchisi*

1. Proporsiya

2. Proporsyaning

xossalari


Kasrning asiaiy xossasiga ko`ra  $\frac{4}{5}$  ni quyidagich yozsa bo`ladi :  $\frac{4}{5} = \frac{8}{10}$ .yoki,  $\frac{4}{5} = \frac{12}{15}; \frac{4}{5} = \frac{16}{20}$

bunda ikkinchi nisbat tengligi yozilgan. Bu tenglikni 4 ning 5 ga nishti 8 ning 10 ga nisbatiga teng deb o`qiladi.

Ta`rif: Ikki nisbatning tengligi proporsiya deyiladi. Demak:  $\frac{4}{5} = \frac{8}{10}$  tenglik proporsiyadir.

Uni  $4:5=8:1$  deb yozsa ham bo`ladi. Bundan  $4*10=5*8$  deb, ya`ni  $40=40$  tenglikni olamiz. 5 va 8 sonlari proporsyaning o`rtalari hadlari, 4 va 10 sonlari esa uning chetki hadlari deyiladi.

Umuman,  $a:b = c:d$  (yoki  $\frac{a}{b} = \frac{c}{d}$ ) proporsiy uchun  $a*b=b*c$  tenglik o`rinli . Aksincha  $a,b,c$  va  $d$  nolga teng bo`lgan sonlar bo`lib ular uchun  $a*b=b*c$  tenglik o`rinli bo`lsa bundan  $\frac{a}{b} = \frac{c}{d}$  tenglik kelib chiqadi, ya`ni  $a,b,c$  va  $d$  sonlar proporsiyani tashkil qiladi



Bu qoidsa proporsyaning asosiy xossasi deyiladi.

1-misol :  $3:5=9:15$

$$3*15=5*9$$

$45=45$  xossa o`rinli ekan.

2-misol:  $8,7,14,16$  sonlari proporsiya tashkil qiladimi?

$$7*16=8*14$$

$\frac{7}{8} = \frac{14}{16}$  proporsiya tashkil qiladi.

3-misol : 1.2.3.4 sonlari proporsiya tashkil qiladimi ?

$1*3 \neq 2*4$ ,  $1*4 \neq 2*3$  bo`lgani uchun berilgan sonlar proporsiya tashkil qilmaydi.

4- misol:  $\frac{x}{6} = \frac{2}{3}$  proporsiyaning noma'lum hadini toping

$$3x=12$$

$$x=4 \text{ Javob : } x=4$$

Ta'rif : Proporsiyaning noma'lum hadini topish otda proporsiyaning yechish deb ataladi.

### PROSENTLAR

1. *Prosentning ta'rifi, promilning t'a'rifi*
2. *Sonning berilgan prosentini ta'rifi*
3. *Prosentga ko'ra sonni topish*
4. *Ikki sonning prosent nisbati.*

Ta'rif : Har qanday miqdor (son) ning yuzdan bir qismi shu miqdorning bir prosenti (foizi) deyiladi. Miqdor (son) ning bir prosentini topish uchun uni 100 ga bo'lish kifoya

Prosent lotincha "pro centum" so`zidan olingan bo`lib yuzdan bir degan ma`noni bildiradi. Prosent sio`zi o`rnida ko`pincha % belgisidan foydalilaniladi. . 12 % o`qilishi o'n ikki prosent

Prosent ta'rifini qisqacha quyidagicha yozish mumkin

$$1\% = \frac{1}{100} = 0,01$$

$$1\text{-misol : } 120 \text{ ning } 1\% \text{ ni toping } \frac{120}{100} = 1,2$$

$$2\text{-misol: } 10 \text{ m ning } 1\% \text{ ni toping } \frac{10m}{100} = \frac{1}{10}m = .1m = 1dm$$

Hisoblashlarda ba`zan prosentlarni o`nli kasr ko`rinishda ifodalash qulay bo`ladi :

Ta'rif: Prosentni o`nli kasr ko`rinishida ifodalash uchun prosent belgisi (%) oldida turgan sonni 100 ga bo'lish (yoki 0.01 ga ko`paytirish ) kifoya

$$\text{Masalan: 1)} 5\% = 5:100 = 5 \cdot 0.01 = 0.05$$

$$2) \quad 50\% = 50:100 = 50 \cdot 0.01 = 0.5$$

$$3) \quad 100\% = 100:100 = 100 \cdot 0.01 = 1$$

Ta'rif : sonni prosent ko`rinishida ifodalash uchun shu sonni 100 ga ko`p[aytirish (yoki 0.01ga bo'lish) va yoniga % belgisini yozish kerak

$$\text{Masalan: 1)} 0.1 = 0.1 \cdot 100\% = 10\% \quad 2) \quad 1 = 1 \cdot 100\% = 100\%$$

Prosent tushunchasidan xo`jlik, moliya iqtisodiyot, statistikaga oid hisoblarda foydalilaniladi.

Ta'rif : har qanday miqdorning mingdan bir qismi shu miqdorning bir promili deyiladi..

Miqdorning bir promilini topish uchun uni 1000 ga bo`lish kerak . Promill % kabi belgilanadi.

Shunday qilib,  $1\% = \frac{1}{1000} = 0,001$  Demak  $1\% = 0.01 = 10 \cdot 0.001 = 10 \cdot 1\% = 10\%$  ,  $1\% = 10\%$

“Promill” lotincha promili so`zidan olingan bo`lib mingga degan ma`noni bildiriladi

Ta`rif : Berilgan sonni berilgan prosentini topish uchun bu sonni 100 ga bo`lib, prosent soniga ko`paytirish kerak.

Misol: a sonining p% ni topish.  $\frac{a}{100} p$  formuladan topiladi.

1-misol: 300 ning 4% ni toping  $\frac{300}{100} * 4 = 3 * 4 = 12$

2-misol: 4.5 ning 16 %ni toping  $\frac{4.5}{100} 16 = \frac{45}{1000} 16 = \frac{720}{1000} = \frac{72}{100} = 0.72$

Ta`rif: Berilgan prosentiga ko`ra o`zini topish uchun shu sonni berilgan prosent soniga bo`lib natijani 100 ga ko`paytirish kerak .

Misol: d% i b ga teng bo`lgan sonni toping.  $\frac{b}{d} 100$  formula orqali topiladi.

1-misol: 3% i 5ga teng bo`lgan sonni toping  $\frac{5}{3} 100 = \frac{500}{3} = 166\frac{2}{3}$

2-misol: 20%i 16 ga teng bo`lgan sonni toping  $\frac{16}{20} 100 = 16 * 5 = 90$

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.U.Abdurahimov “Algebra va mastematik analuz asoslari” T-2001 y
2. R.Vafayev “Algebra va analiz asoslari” T-2001 y
3. M.A.Mirzahamedov “Matematika” 5-6 sinf T-2005 y